

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
BAYONI

2024- yil 26- aprel

1-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: Y.A. Abdullayev – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Statistika agentligi direktori va tegishli tarmoq boshqarma boshliqlari.

KUN TARTIBI:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashi yangi tarkibini tasdiqlash;

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashining 2024-yildagi yig‘ilishlarida muhokama qilinadigan masalalarni tasdiqlash;

III. Statistika agentligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti;

IV. Jamoatchilik kengashi a‘zolarining takliflari.

(Y. Abdullayev, S. Gulyamov, A. Satimov, U. Abdurasulov, Y. Abdullayev)

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yangi tarkibini tasdiqlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashining 2024-yildagi 1-yig‘ilishini Statistika agentligi direktori Begalov Bahodir Abdusalomovich ochib berdi. Agentlik rahbari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, Statistika agentligi huzurida Jamoatchilik kengashi yangi tarkibda tuzilganini ta‘kidlab o‘tdi.

“Mazkur kengash orqali Statistika agentligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, agentlik faoliyatidagi yangiliklar va kelgusi rejalar haqida sizlarga va sizlar orqali keng jamoatchilikka axborot berish asosiy maqsadimizdir. Shuningdek, Sizlarning taklif va tashabbuslaringizni olib, uni o‘rganib chiqib, amaliyotga joriy etish

ham asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Shu bois sizlarni kengash yig'ilishlarida qatnashish va takliflar berishda faol ishtirok etishingizni so'rayman", dedi agentlik direktori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yangi tarkibi:

1. Abdullayev Yorqin – Toshkent moliya instituti professori, i.f.d., **Jamoatchilik kengashi raisi.**

2. Gulyamov Saidaxror – Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti kafedra mudiri, i.f.d., akademik, **Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari.**

Jamoatchilik kengashi a'zolari:

3. Urunov Jamshid – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'rinbosari.

4. Zafar Hoshimov – Tadbirkor, "Korzinka.uz" asoschisi.

5. Ayubjonov Abbos – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra mudiri, i.f.n., dotsent.

6. Xusanov Chori – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosat va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent.

7. Ziyadullayev Mahmudjon – Toshkent shahridagi "Sankt-Peterburg davlat universiteti" Federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasalari filiali ijrochi direktori.

8. Azamov Shohruh – "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali Bosh muharriri.

9. Karabayev Davron – "UZReport TV" telekanali Yangiliklar xizmati direktori.

10. Korjoupov Abdurauf – "Yangi O'zbekiston" gazetasi bo'lim boshlig'i.

11. Boboyeva Gulnoza – O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri.

12. Hakimov Abdurashid – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.n.

13. Mamirov Aziz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi shu’ba mudiri.

14. Sharipov Jamshid – “Taraqqiyot strategiyasi” markazi Ijtimoiy sohadagi islohotlarni monitoring va tahlil qilish bo‘limi boshlig‘i.

15. Sharaxmetov Shoxrux – Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi direktorining birinchi o‘rinbosari.

16. Abdullayeva Ozoda – Pensioner.

17. Satimov Amin – Pensioner.

18. Abdurasulov Usmon – Axborot xizmati rahbari – direktorning matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi, Jamoatchilik kengashi kotibi.

Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi kun tartibidagi 1-masala yuzasidan kengash a‘zolari qaror qiladi:

1. Jamoatchilik kengashining yangi tarkibi bir ovozdan tasdiqlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashi yangi tarkibi yuzasidan ma’lumotlar agentlik rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

3. Jamoatchilik kengashi a‘zolarining aloqa ma’lumotlari keng jamoatchilik uchun ochiq manbaga agentlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

II. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi Y.A. Abdullayev kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashining 2024-yildagi keyingi yig‘ilishlarida quyidagi masalalar kun tartibiga kiritilishi lozim:

1. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati tahlili;

2. “2024-yil uchun Statistika dasturi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti;

3. Statistika agentligi faoliyatiga oid qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, qarorlar ijrosi tahlili;

4. Agentlik tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar holati;

5. O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olish tadbiriga ko‘rilayotgan tayyorgarlik jarayoni bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar;

6. Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati;

7. Rasmiy statistika ma‘lumotlariga bo‘lgan ehtiyojlar asosida statistik ma‘lumotlardan foydalanuvchilarni qanoatlantirish samaradorligi tahlili;

8. Takliflardan kelib chiqqan holda boshqa masalalar.

Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi kun tartibidagi 2-masala yuzasidan kengash a‘zolari qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jamoatchilik kengashining 2024-yildagi keyingi yig‘ilishlarida kun tartibiga kiritiladigan masalalar tasdiqlandi.

2. Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarining tasdiqlangan kun tartibi Statistika agentligi rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

III. Statistika agentligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti yuzasidan O. Mamadaliyevning hisoboti eshitildi:

Statistika dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-yanvardagi “2024-yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 30-son qarori bilan tasdiqlangan.

Dasturga muvofiq, 2024-yilning yanvar-mart oylarida jami **782 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajarildi, shundan **390 tasi** Statistika agentligi va uning organlari tomonidan, **226 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **166 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Statistika agentligi tomonidan iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko‘rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma‘lumotlari har oyda hukumatga taqdim etib borildi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr davri uchun O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistika ma‘lumotlari tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" axborotnomasi (doklad) o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuborildi.

Shu bilan birga, 2024-yil yanvar, yanvar-fevral davrlari uchun "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" statistik risolasi 2 tilda (o'zbek, rus) chop etilib, belgilangan ro'yxat asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra, shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari, axborotnomalar, to'plamlar, press-relizlar ko'rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, 2024-yilning yanvar-mart oylarida agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **2 037 ta**, Facebook sahifasida **2 037 ta** va Instagram sahifasida **123 ta** yangiliklar e'lon qilindi, Instagram roliklari agentlikning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **10 dan ortiq** infografika roliklari, statistika faoliyatiga oid **70 dan ortiq** lavhalar hamda 120 dan ortiq qisqa satrli statistik ma'lumotlar "O'zbekiston 24", "Uzreport TV" telekanallarida doimiy tarzda e'firga uzatilib kelinmoqda.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytining "Rasmiy statistika" bo'limida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo'nalishlari bo'yicha **501 ta** statistika ma'lumotlari to'plamlari e'lon qilindi.

"Xalq so'zi", «Народное слово», "Yangi O'zbekiston", «Правда Востока», "Iqtisodiy gazeta", "Birja", "Ishonch", "Oila davrasida" va boshqa nashrlarda statistika ko'rsatkichlari aks etgan **10 ga yaqin** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha 2024-yil yanvar-mart oylarida **8 ta** yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Statistika ma'lumotlari sifatini oshirish borasida, hisobot topshiruvchi subyektlar o'rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida **30,4 mingta** respondentlarga tushuntirishlar, **17,9 mingta** yangi tashkil etilgan respondentlar profllaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **40,5 mingdan** ortiq bukletlar tarqatildi va **1 678-marta** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni **4 500 dan** oshdi.

Jumladan, Statistika agentligi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistika ma'lumotlari to'plamlari soni **2 198 tani** tashkil qildi.

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga asosan va yangi kiritilgan o'quv kurslariga asosan 2024-yil yanvar-mart oylarida **26 ta** o'quv kurslarida **291 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi.

Institut tomonidan 2024-yilda amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar dasturiga muvofiq, 8 ta tadqiqot ishi tasdiqlangan bo'lib, shundan yanvar-mart holatiga fevral oyida **2 ta** tadqiqot ishi ishlab chiqildi.

Jumladan, "Qurilish ishlari narxlari indeksini hisoblash amaliyotini xalqaro uslubiyatlar asosida takomillashtirish" bo'yicha tadqiqot ishi Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etildi. "BMT Statistika komissiyasining yillik sessiyalariga takliflar tayyorlash" bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi hamda Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasiga taqdim etildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mazkur qaror doirasida "Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma'lumotlar bazalarini Statistika agentligining axborot tizimiga integratsiya qilish va ma'lumotlarni taqdim etish reja-jadvali"da belgilangan ishlarni bajarilishi yuzasidan yanvar-mart oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023–2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2024-yil yanvar oyida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi axborot tizimi va Statistika agentligining "Statistika" integrallashgan axborot tizimi o'rtasida doimiy aholi soni bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro almashinuvi to'g'risida texnologik yo'riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo'lga qo'yildi.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi bilan birgalikda 2024-yil mart oyida "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti bo'lgan tashkilotlar faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar)lar kesimida integratsiya orqali taqdim etishni yo'lga qo'yish" bo'yicha 2 yoqlama texnologik yo'riqnoma tasdiqlanib, integratsiya yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori tasdiqlanganligi munosabati bilan uni ijrosini

sifatli va samarali tashkil etish bo'yicha Statistika agentligi huzuridagi Statistika kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda, Statistika agentligiga mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur qaror va u bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash choralari ko'rish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Statistika agentligi va barcha quyi tizim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-114-son qarori bilan belgilangan faoliyatning ustuvor yo'nalishlari amalga oshirilishi hamda maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlar)ga erishilishini ta'minlash maqsadida 2024-yil 5-martda 23-buyruq qabul qilindi va nazorat reja tasdiqlandi.

Nazorat rejaga muvofiq, quyidagi ishlar amalga oshirildi:

"Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan rasmiy statistika sohasida statistika kuzatuvlarini outsorsing asosida tashkil etish amaliyotini joriy etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi va qaror loyihasi rasmiy statistikani tayyorlovchilar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-95750) orqali kelishilgan bo'lib, hozirda jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan (ID-96460);

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi va qaror loyihasi rasmiy statistikani tayyorlovchilar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-95847) orqali kelishilmoqda;

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqildi va rasmiy statistikani tayyorlovchilar bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-96879) orqali kelishilmoqda;

"Bir yillik statistika dasturini hisoblash metodikasi" loyihasi ishlab chiqildi va normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-96041) orqali Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborildi;

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi va qaror loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-97082) orqali kelishilmoqda;

"Rasmiy statistika faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori

loyihasi ishlab chiqildi va qaror loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi project.gov.uz (ID-97082) orqali kelishilmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 3-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. "2024-yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2024- yil I chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida O. Mamadaliyevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilindi.

2. "2024-yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2024- yil I chorakda bajarilgan ishlar haqidagi to'liq ma'lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilishi uchun agentlikning rasmiy veb-saytida yoritilsin.

3. Dasturda belgilangan vazifalarning ijrosi natijalari haqida kengash a'zolari ham keng jamoatchilikka axborot yetkazish choralari ko'rsin.

IV. Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari.

1. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi Ijtimoiy sohadagi islohotlarni monitoring va tahlil qilish bo'limi boshlig'i Jamshid Sharipov so'zga chiqib, ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirib borayotganini ta'kidlab, tarmoqlar statistikasida ham sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish borasida taklif kiritdi.

2. Shuningdek, kengash a'zolari quyidagicha o'z fikr va takliflarini kiritdilar. Jamoatchilik kengashi a'zosi tadbirkor, "Korzinka.uz" asoschisi Zafar Hoshimov:

"Bugungi kunda barcha darajadagi tadbirkorlar xoh ish jarayonida, xoh yangi biznes ochishda yoki o'z bizneslarini yanada rivojlantirishlari uchun statistik ma'lumotlardan foydalanmoqda. Biz ham ayrim statistik ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilib, foydalanib kelayapmiz. Lekin oldimizda ayrim masalalar ochiq qolmoqda. Masalan, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi qancha? Bu qanday tartibda o'rganilmoqda? Yana bir masala iste'molchilarning xarid salohiyati bo'yicha ma'lumotlar. Yoki narx-navo bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish lozim".

3. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti kafedrasini mudiri, i.f.d., akademik Saidaxror Gulyamov:

"Raqamlashtirish masalasi, dasturchilar faoliyati va ishsizlik masalalarini chuqur tahlillar asosida o'rganish lozim. Beriladigan ma'lumotlar faqatgina nomiga hisobot uchun emas, u ma'lum bir muammoning yechimi uchun xizmat qilsin. Statistik

ma'lumotlarning ishonchililigini oshirish uchun uning mustaqilligini yanada oshirish shart".

4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi bo'lim boshlig'i Abdurauf Korjoupov:

"Statistik ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, keng jamoatchilikka yoritish borasida davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. E'tirof etish lozim "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetarida doimiy tarzda Statistika agentligi rahbari va mutaxassislarining tahliliy maqolalari chop etilmoqda. Lekin ayrim hollarda vazirlik va idoralar bilan ma'lumotlarda farq qilishlar yoki narx bo'yicha o'xshash kuzatuvlar masalalari bir qator savollarni yuzaga keltirishi mumkin. Ana shunday hollarda qaysi ma'lumotga ishonish va foydalanish mumkin. Bularni inobatga olib, rasmiy statistika ma'lumotlari ishonchililigini keng jamoatchilikka qonunchilik jihatidan ham ko'proq ma'lumot berish lozim".

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 4-masalalar yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolarining mazkur takliflari tegishliligicha Statistika agentligi tomonidan o'rganib chiqilib, keyingi yig'ilishda axborot berilsin.

2. Jamoatchilik kengashi mas'ul kotibi (U. Abdurasulov)ga Jamoatchilik kengashining mazkur yig'ilish bayoni nusxasini Statistika agentligiga yetkazilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Jamoatchilik kengashi yig'ilish bayoni qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.